

"DUNYONING ISHLARI" ASARIDA QO'LLANILGAN BARQAROR BIRLIKLER IFODASI

Abduraximova Shoxsanam Nazir qizi

Buxoro davlat universiteti lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi

1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20132848>

Annotasiya: mazkur maqolada O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov qalamiga mansub "Dunyoning ishlari" qissasida qo'llanilgan barqaror birikmalar lingvopoetik jihatdan tahlil qilinadi. Asarda qo'llanilgan frazeologik birliklarlar bir nechasing semantik, uslubiy hamda badiiy-estetik xususiyatlari ochib beriladi. Shuningdek, qissada qo'llanilgan turg'un birikmalar orqali xalqona tafakkur, milliy qadriyatlar va og'zaki nutq an'analari bilan uzviy bog'liqligi ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari O'tkir Hoshimov asarlari tilini frazeologik nuqtayi nazardan o'rganishda muhim ilmiy manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: barqaror birikma, uslubiy xususiyat, ibora, semantik tahlil.

Insonlarning bir-biriga bo'lgan munosabati til orqali namoyon bo'ladi. Jamiyat rivojlanar ekan, til ham o'sishda davom etadi va shu orqali til xalqning milliy tafakkuri, madaniyati va ma'naviy dunyosini aks ettiradi. Tilimiz ham xuddi shunday xususiyatga ega. Uni go'zal va jimjimador qilgan bir qancha birliklar mavjud. Shulardan biri sifatida frazeologik birliklarni aytishimiz mumkin. Ular xalqning ko'p asrlik tajribasi, dunyoqarashi va hissiy kechinmalarini o'zida mujassam etganligi bilan ahamiyatlidir. Shuning uchun badiiy matnlarda frazeologik birliklarning qo'llanishini tadqiq etish lingvistika va adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

O'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan O'tkir Hoshimovning ijodi o'zining xalqchil ruhda yozilgani, ta'sirchan va sodda tili bilan kitobxon e'tiborini qozongan. Adibning "Dunyoning ishlari" qissasi onaga bo'lgan muhabbat, insoniy munosabatlar, mehr-oqibat va oilaviy qadriyatlarni badiiy ifodalovchi asarlardan biri sanaladi. Yozuvchi ushbu asarda iboralar, maqollar va barqaror birikmalarning bir qanchasini qo'llagan. Bu esa asarning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Quyida asardagi qo'llanilgan frazeologik birliklarni tahlil qilamiz.

"Ikki afsona" qissasidan: *Navbatchi edim. Xonada yolg'iz ishlab o'tirsam, farrosh kampir Vera xola kirdi. —Shu stol siznikimi? — dedi negadir qovog'ini solib. —Ha. —Chekasizmi? — Chekaman. — Nega kulni polga tashlaysiz? Kuldoningiz bo'lmasa, ayting, uydan obkeb beray! Mulzam boldim. Yo'q, yo'lakning devorida «Farrosh mehnatini hurmat qiling» degan yozuv ilib qo'yilgani uchungina emas. Gap shundaki, farroshning ishi qanaqa bo'lishini yaxshi bilaman, o'zimning boshimdan o'tgan.*¹ Ushbu parchada "qovog'ini solmoq" iborasi qo'llanilgan bo'lib, uning ma'nosi insonning nimadandir yoki kimdandir hafa bo'lganini, ranjiganini qovog'ini quyiroqqa tushirib, boshini egib bildirish demakdir. Yuqoridagi parchada Vera xolaning o'sha vaziyatdagi ruhiyati ushbu ibora orqali yanayam yorqinroq ifodalangan.

"Xiyonat" qissasidan: *Ko'zimga yosh quyilib kelar, butun sinfga, butun maktabga eshittirib hayqirgim kelardi: «Men emas, o'zi otdi, o'zi sindirdi! Ishonmasanglar cho'ntagini qaranglar!» Shunday degim kelardi-yu, negadir ovozim chiqmasdi. Sinfdan otilib chiqib ketdim. Ko'chaga chiqqandan keyingina yiglab yubordim. Uyga kelib entika-entika hammasini oyimga aytib*

1 Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. —T: Yangi asr avlodi, 2019. 11-12 b.

*berdim. Oyim boshimni silagancha, ohista yupatdi: — Qo'yaver, o'glim. Ba'zan shunaqasi ham bo'ladi. Faqat o'zing unaqa qilma. Ko'rdingmi, yolg'on gapirgani uchun o'rtogingni yomon ko'ryapsan. Agar yolg'on gapirsang seniyam hamma yomon ko'rib qoladi.*² Ushbu parchada qo'llanilgan "yomon ko'rmoq" iborasining bir necha ma'nolari mavjud: sevmaslik, izzat-hurmat qilmaslik; kimnidir yoki nimanidir yoqtirmaslik; nafratga yaqin salbiy his; sevmaslik, oshiq bo'lmaslik kabi. Ushbu parchada qo'llanilgan birinchi "yomon ko'rmoq" iborasi nafratga yaqin salbiy his ma'nosida qo'llanilgan. Keyingi gapda qo'llanilgan ma'nosi esa sevmaslik, izzat-hurmat qilmaslikni ifodalaydi.

"Sovchilar" qissasidan: *Shu bilan gap boshqa yoqqa aylanib ketdi. Dadam eski paxtaligini kiyib, kechqurungi smenaga ishga jo'nadi. Biz-aka-ukalarga jon kirdi. «Qushim boshi» o'ynadik, o'rta barmoqni topish o'ynadik. Oxiri o'yindan o'q chiqdi. «Oshxo'rakam kaptar» o'ynayotganimizda akamning boshi ukamning boshiga qattiqroq urilib ketdi shekilli, ukam arillab yiglay boshladi.*³ Parchada "jon kirmoq" iborasi qo'llanilgan bo'lib, bu iboraning ham bir necha ma'nolari mavjud: tetiklashmoq, jonlilashmoq; nimanidir go'yo tirik jonga aylantirmoq; hayotga qaytmoq, tirilmoq; faollik yoki harakatning kuchayishi kabilar. Yuqorida qo'llangan parchadagi "jon kirdi" iborasi faollik yoki harakatning kuchayishi ma'nosida qo'llanilgan.

Xulosa: Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, qissada frazeologik birliklar tasodifiy qo'llanilmagan, balki yozuvchining badiiy niyatini ochib berish, qahramonlar ruhiy holatini ifodalash hamda voqelikni jonli va ta'sirchan tasvirlash maqsadida mahorat bilan ishlatilgan. Ular orqali asarning emotsional-ekspressiv yuklamasi kuchaytirilgan, matnning o'qishliligi va ta'sirchanligi oshirilgan. Mazkur qissada barqaror birikmalarning keng va maqsadli qo'llanishi o'zbek adabiy tilining boyligini, uning ifoda imkoniyatlarining kengligini yana bir bor isbotlaydi. Bu esa kelgusida bunday birliklarni yanada chuqurroq o'rganish va lingvopoetik tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. —T.: Yangi asr avlodi, 2019.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek frazeologiyasi asoslari. — Toshkent: O'qituvchi, 2010.
3. Rahmatullayev Sh. Mahmudov N. Xolmanova Z. O'razova O. Rixsiyeva K. O'zbek tili frazeologik lug'ati. —Toshkent, 2022.
4. Yo'ldoshev M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. — Toshkent: Universitet, 2015.

² Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. —T.: Yangi asr avlodi, 2019. b-31.

³ Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. -T.: Yangi asr avlodi, 2019. b-55.